



AGROSUG'URTA TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI: RIVOJLANGAN DAVLATLAR MISOLIDA

Nosurullayev Qodir Abdisharib o'g'li
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti",
Milliy tadqiqot universiteti
ORCID: 0000-0002-2570-9003
godir.8758@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada agrosug'urta tizimini tashkil etish hamda shakllantirish metodologiyasi, ushbu vazifaning xorijiy mamlakatlarda olib borilishi, tajribasi hamda samaradorligi muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: agrosug'urta, metod, qishloq xo'jaligi, agrar soha, texnologiya, hosil yo'qotilishlari, sug'urta fondi.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ АГРОСТРАХОВАНИЯ: НА ПРИМЕРЕ РАЗВИТЫХ СТРАН

Носуллаев Кодир Абдишариб угли
Национальный исследовательский университет
"Ташкентский институт инженеров
ирригации и механизации сельского хозяйства"

Аннотация. В данной статье рассматривается методология организации и формирования системы агрострахования, а также реализация, опыт и эффективность выполнения этой задачи в зарубежных странах.

Ключевые слова: агрострахование, метод, сельское хозяйство, аграрный сектор, технологии, потери урожая, страховой фонд.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING AN AGRICULTURAL INSURANCE SYSTEM: A CASE STUDY OF DEVELOPED COUNTRIES

Nosurullaev Kodir Abdisharib ogli
National Research University
"Tashkent Institute of Irrigation and
Agricultural Mechanization Engineers."

Abstract. This article discusses the methodology of organizing and forming an agricultural insurance system, as well as the implementation, experience, and effectiveness of this task in foreign countries.

Keywords: agricultural insurance, method, agriculture, agrarian sector, technology, crop losses, insurance fund.

Kirish.

Qishloq xo'jaligini, xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va sug'urtalashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha agrar sohaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda jahondagi ko'plab rivojlangan davlatlarda boy tajriba to'plangan.

Bugungi kunda barcha iqtisodiy rivojlangan davlatlarda agrar sohani sug'urtalashning turli usullari amalqilmoqda. Qishloq xo'jaligida sug'urtaning keng tarqalgan yo'nalishlari sifatida ekinlar hosili sug'urtasi, daromadlar sug'urtasi, shuningdek, daromadlarni barqarorlashtirish sug'urtasi e'tirof etiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Sug'urta sohasini ilmiy va amaliy jihatdan o'rgangan mamlakatimizdagi ko'pgina iqtisodchi olimlar Abdullayev, Murodov, Sobirov (1998), Husanov, Yuldashev (2012), Qodirov, Tojiboyeva, Abduraxmonov, Yadgarov va boshqalar o'z ilmiy izlanishlari bilan sug'urta sohasining mamlakatimizda taraqqiy etishida katta hissa qo'shganlar. Ushbu olimlar sug'urtaning kelib chiqishi, sug'urta bozorini tashkil etish hamda sug'urta xizmatlarini keng ko'lamda ko'rsatish yuzasidan o'zlarining fikr va mulohazalarini berib o'tganlar.

Sug'urta xizmatlarining va sug'urta bozorining mavjud bo'lishi bozor munosabatlariga asoslangan har qanday mamlakat iqtisodiy tizimi hamda infratuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridir biri hisoblanadi. Nazariy jihatdan sug'urta tushunchasiga Sobirov (1998) tomonidan quyidagi ta'rif berilgan: "Ko'pchilik adabiyotlarda sug'urta so'zi xavf-xatar, dahshat, vahima ma'nosida ishlatiladi, chunki, ko'rsatilgan tabiiy ofatlar va baxtsiz hodisalar natijasida jamiyat hayotiga moddiy zarar yetkaziladi. Lekin sug'urta deganda ana shu ruhiy holatlar emas, balki bular asosida vujudga kelgan va paydo bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda zararlari, ularning kuchini qirg'ishga qaratilgan tadbirlar, zarar natijasida vujudga kelgan kamomadning o'rnini to'ldirish, bu yo'nalishda yuzaga keladigan sug'urtalovchi tashkilotlar va sug'urtalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar ko'zda tutiladi".

Shu o'rinda sug'urta munosabatlarini tashkil etishdagi mavjud tushunchalarga alohida to'xtalib ketish maqsadga muvofiq. Sug'urta munosabatlarini to'liq anglab yetishda dastavval, sug'urta predmeti va sug'urta obyektini tushunchalariga aniqlik kiritish kerak. "Sug'urta predmeti bo'lib sug'urtalangan narsa (mulk, mulkiy manfaat) tushuniladi. Sug'urta obyektini bo'lib esa sug'urtalashdan ko'zlangan maqsad hisoblanadi" - deb, i.f.d., professor M.Yuldashev o'zining "Sug'urta huquqi" nomli darsligida ta'rif bergan.

Sug'urta munosabatlaridagi eng asosiy tushunchalar bular - sug'urta mukofoti, sug'urta summasi hamda sug'urta to'lovi (sug'urta to'lovi)dir. Sug'urta mukofotiga turli adabiyotlarda iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan i.f.d., professor M.Yuldashev o'zining "Sug'urta huquqi" nomli darsligida sug'urta mukofotiga quyidagicha ta'rif bergan: "Sug'urta mukofoti - sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta haqi".

Qishloq xo'jaligida sug'urta tizimini joriy etish va rivojlantirishni tartibga solish bo'yicha bir qator xorijiy davlatlarda hukumat darajasida qonunlar qabul qilingan. **Jumladan:**

Fransiyada «Qishloq xo'jaligini sug'urtalash to'g'risida»gi milliy Qonun 1984 yilda (14 iyul, 706-son) qabul qilingan. Ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida sug'urta tizimi birinchi marotaba Fransiyada qo'llanilgan bo'lib, 1750 yilda bir nechta fermerlar qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash bo'yicha birlashgan. Fransiyada qishloq xo'jaligi ekinlari va yaylov chorvachiligi bo'yicha tabiiy ofat natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash uchun «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kafolatlash Milliy Fondi» (FNGCA) faoliyat yuritadi. Fondning asosiy maqsadi milliy va professional birdamlikni amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligi sug'urtasi sektori uchun soliq yukini kamaytirishdan iborat.

Ushbu fond tomonidan sug'urta qilinadigan xatarlar sifatida ko'p yog'ingarchilik, toshqin va yong'in, qurg'oqchilik, muzlash, dovu, epidemiya va parazitlar qayd etilgan. Fond

mablag'larining 50 foizi davlat tomonidan, 50 foizi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallari hisobiga shakllanadi. Fermerlardan tushadigan mablag'lar qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha mukofotlardan qisman shakllanadi (5% do'l urishidan, 15% yong'indan sug'urtalash bo'yicha to'lanadigan sug'urta mukofotlari hisobidan). Fond mablag'larini shakllantirish mulk sug'urtasi bo'yicha qo'shimcha shartnomalar qilish orqali ham amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida sug'urtalash bo'yicha 14 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritadi va ushbu sohada davlatning ko'magi faqatgina ayrim turdagi ekinlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Fransiyada qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash tizimi uchta dastur asosida amalga oshiriladi:

1. «CatNat» kafolatli das-turi bo'yicha korxonalar yoki xususiy mulk egalarini tabiiy ofatlardan ko'rgan zararlarining asosiy qismi qoplab beriladi;

2. «TOS» kafolatli das-turi bo'yicha dovul, bo'ron, to'fon va do'l bilan bog'liq xatarlar qoplanadi. Ushbu dastur doirasida yuridik va jismoniy shaxslarning mulklari sug'urta qilinadi.

3. Davlat kafolati dasturi bo'yicha qishloq xo'jalik ekinlari hosilining yo'qotilishidan ko'rilgan zararlar qoplab beriladi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi va Moliya vazirligi fermerlar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallarini subsidiyalash miqdorini belgilaydi. Birgalikda sug'urtalash jamiyati va sug'urtalovchi tashkilotlar shartnoma tuzadi va ko'rilgan zararni qoplab beradi.

Ispaniya agrosug'urta tizimi: birinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar daromadlarini barqarorlashtirish; ikkinchidan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarni xatarlarni boshqarishga jalb qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Agrosug'urta tizimi qonu-niy jihatdan mustahkamlangan bo'lib, 1978 yilda «Agrosug'urta to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan va bugungi kungacha amal qilmoqda.

Ispaniyada amaldagi sug'urta tizimi samarali hisoblanadi va u davlat, hukumat, provinsiya-lar hamda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatlarining hamjihatligiga yo'naltirilgan.

Tabiiy ofatlar natijasida ekinlar hosilining yo'qotilishini davlat tomonidan kompensatsiya qilish tabdirilarining Ispaniya tizimi Yevropada eng samarali hisoblanadi. Ispaniya davlati nafaqat qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalashni, balki chorva mollarini sug'urtalashni ham subsidiyalaydi.

Subsidiyalash sug'urta mukofotlarining o'rtacha 53 foizini tashkil etadi. Shundan 40-45 foizi Markaziy hukumat tomonidan, 10-15 foizi hududiy hukumat tomonidan subsidiyalanadi.

Hosilni sug'urtalash dasturi 28 turdagi qishloq xo'jalik ekinlariga taalluqlidir. Sug'urta qoplamalarining ikkita asosiy turi amal qiladi. Birinchi shakli — integratsiya-lashgan yoki umumiy sug'urta qoplamasi. Bu kuzgi ekinlarga tegishli bo'lib, do'l, yong'in, muzlash, qurg'oqchilik, suv toshqini, kasalliklar, zararkunandalar kabi tabiiy ofatlardan sug'urtalashga qaratilgan.

Sug'urtalashning ikkinchi shakli bir necha turdagi yoki ko'p sonli xatarlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga qaratilgan. Ushbu sug'urta turi uzum, tamaki kabi tabiiy ofatlarga nisbatan kuchsiz bo'lgan qishloq xo'jaligi ekinlariga nisbatan qo'llaniladi.

Ispaniyada hosilni sug'urtalash umummilliy qishloq xo'jaligi siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu tizimga nafaqat sug'urta kompaniya-lari va fermerlar, balki Qishloq xo'jaligi vazirligi va Moliya vazirligi ham jalb etilgan.

Xususiy sug'urtalovchilar birgalikda sug'urta qilish fondini tashkil etgan, ya'ni ular o'zlari polislarni ro'yxatga olish, sug'urtalanuvchiga berish, sug'urta mukofotlarini to'plash, zararlarni qoplab berish, sug'urtalash sharoitlarini yaratish, yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish kabi sug'urtalash jarayoni nazoratini amalga oshiradi. Ushbu jarayonda Qishloq xo'jaligi

vazirligining roli sug'urta badallarini to'lash uchun subsidiyalarni taqdim etish, turli qishloq xo'jalik ekinlariga narx belgilash, Moliya vazirligining roli esa sug'urta himoyasining barcha tizimlarining amal qilishini muvofiqlashtirish hamda qayta sug'urtalashni tashkil etish hisoblanadi.

Ispaniyada qishloq xo'jaligi sug'urtasining eng ko'p turi qo'llaniladi va barcha turdagi xatarlardan sug'urtalash amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi bilan 27 ta sug'urta kompaniyasi shug'ullanadi.

Sug'urta kompaniyalari sug'urtalash ishlariga, talablariga va strategiyasini ishlab chiqishga hududiy jihatdan javobgar bo'lgan assotsiatsiyalarga birlashgan.

Sug'urta mukofotlari stavkalari davlat kompaniyalari tomonidan ishlab chiqiladi va 30 %dan 70 %gacha bo'lgan qismi hukumat tomonidan subsidiyalanadi. Shuningdek, hukumat shartnomalarni qayta sug'urtalash xizmatlarini ta'minlaydi. Sug'urta tizimi fermerlar daromadining kamayi-shiga sabab bo'luvchi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq barcha xavf-xatarlarni qamrab olgan.

Ispaniya sug'urta tizimining asosiy xarakterli jihatlarni alohida qayd etish lozim:

- davlat agrosug'urta tizimini qo'llab-quvvatlab, uni nazorat qilgan holda rivojlantirmoqda;
- tavakkalchiliklarni hi-moyalash tizimi xususiy sug'urta kompaniyalarining birgalikdagi kafillik javobgarligiga asoslangan holda ta'minlanadi;
- agrar xatarlarni sug'urta-lash ixtiyoriy hisoblanadi;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'zlarining birlashmalari orqali agrosug'urta masalalarini hal qilishda faol ishtirok etmoqda.

Germaniyada sug'urtalash o'zaro birlashgan sug'urta assotsiatsiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday assotsiatsiya birinchi marotaba 1797 yilda tashkil etilgan. Ta'kidlash lozimki, sug'urtalanuvchi fermerlar assotsiatsiyalarning a'zosi hisoblanadi, lekin ularning a'zosi bo'lmagan fermerlar ham sug'urta qildirish huquqiga ega.

Germanida ekinlarni do'l urishiga qarshi sug'urtalash turi nemis dehqonlari o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, tavakkalchilikni boshqarishning eng muhim dastagi sifatida qo'llaniladi. Ushbu sug'urta turi bilan 30 dan ortiq kompaniya shug'ullanadi hamda 80 foizdan ortiq ekin maydonlari qamrab olingan.

Sug'urta zarari monitoringini yuritish va baholash assotsiatsiyalar a'zolari, ya'ni fermerlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda baholovchilarning ishlari bo'yicha hududlararo tizim qo'llaniladi: baholovchi fermerlar baholash amalga oshirilayotgan hududga nisbatan boshqa hududdan bo'lishi shart. Bu «o'z manfaati uchun foydalanish» kabi muammoni hal etish imkonini beradi. Assotsiatsiya a'zolarining umumiy yig'ilishi qaroriga asosan talab qilib olinmagan sug'urta to'lovlari zaxiralari shakllangan hollarda ushbu mablag'lar assotsiatsiya a'zolari o'rtasida taqsimlanadi. O'zaro sug'urtalash bo'yicha sug'urta zaxiralarni shakllantirish uchun assotsiatsiyaga yo'naltirilayotgan mablag'lar sug'urta summasining belgilangan foizidan ortib ketmasa soliqqa tortilmaydi.

Germaniyada fermerlar sug'urta fondining 60%i davlat budjeti hisobidan, qolgan qismi sug'urta qildiruvchilarning badallari hisobidan shakllantirilgan. Sug'urta fondining 2012 yilgi budjeti 6,7 mlr. yevroga teng bo'lgan.

Polshada qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash mahsulot ishlab chiqaruvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Ammo kredit olish uchun garovga qo'yiladigan bo'lg'usi hosilni sug'urtalash majburiy hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi sug'urtasining muhim xususiyati shundaki, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan sug'urta kompaniyalariga to'lanadigan sug'urta mukofotlarining bir qismi davlat budjeti tomonidan qoplanadi. Ushbu maqsadlar uchun 2012 yilda Polshada davlat budjetidan (YeI fondidan) 51,3 mln. yevro ajratilgan va 3 mln. gektar maydondagi qishloq xo'jalik ekinlari sug'urtalangan.

Italiyada qishloq xo'jaligi sug'urtasi asosan xususiy sug'urta firmalari tomonidan olib boriladi, shu bilan birga, hukumat tomonidan sezilarli darajada moliyaviy yordam amalga oshiriladi. Do'l sug'urta qilish uchun yagona amaliy xatar hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini muzlashdan sug'urtalash bo'yicha meva, uzum va artishok (o'tsimon poliz o'simligi) ishlab chiqarishda kichik dasturlar mavjud. Sug'urta mukofotlarini to'lashning 50 %ini davlat o'z zimmasiga oladi, qolgan 50%i fermerlar tomonidan amalga oshiriladi (ayrim hollarda mahalliy hokimiyat sug'urta mukofotlarining 10 foizigacha bo'lgan qismini qoplab beradi).

AQShda qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimi Senatning tashabbusi bilan 1922 yilda tashkil etilgan. 1933 yilda qabul qilingan «Qishloq xo'jaligi to'g'risida»gi (Farm Bill) Qonun sohada xatarlarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu qonunning asosiy maqsadi fermerlarning tabiiy ofatlardan va bozorda narx-navoning o'zgarishi, nobarqaror bo'lishi natijasida ko'radigan zararlarini qoplab berish bo'yicha dasturlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

AQSh hukumati tomonidan 1939 yilda birinchi sug'urtalash dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, uni amalga oshirish uchun hosilni sug'urtalash bo'yicha Federal korporatsiyasi (FCIC) tashkil etilgan.

AQSh hukumati sug'urtalash shartlari va qoidalarini tartibga soladi, kelgusida qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urta himoyasiga olishning barcha turlari bo'yicha tariflarni ishlab chiqadi.

AQShda 1980 yilda «Ho-silni sug'urtalash to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan. Hosilni sug'urtalash Dasturi qishloq xo'jaligida xavfli xatarlardan himoya qilishni va uning natijasida ko'riladigan iqtisodiy zararlarini kamaytirishni ko'zda tutadi. Ushbu maqsadga erishish uchun Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'urtalash Federal Korporatsiyasi tashkil etilgan. Korporatsiya tomonidan sug'urta mukofotlari stavkalari, subsidiyalar hajmi belgilanadi va yangi turdagi sug'urta mahsulotlari tasdiqlanadi. Hosilni sug'urtalash xususiy sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi va ular sug'urta xizmati ko'rsatishning barcha jihatlariga javobgar bo'ladi hamda sug'urtalanuvchilar mukofotlarining to'lanishini kafolatlaydi. O'z navbatida, Federal Korporatsiya qishloq xo'jaligi xatarlarini qayta sug'urtalaydi, sug'urta xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan operatsion va boshqaruv xarajatlari uchun kompensatsiya to'lovlarini amalga oshiradi va subsidiyalanadigan agrosug'urta xizmati ko'rsatuvchi barcha kompaniyalar faoliyatini nazorat qiladi. Nazorat tuzilgan shartnomalar bo'yicha ma'lumotlarni, ya'ni arizalar bo'yicha ko'rilgan zararlar va to'langan mablag'larni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Agrosug'urta sohasida davlat siyosatini yuritish uchun AQSh Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida «Xatarlarni boshqarish Agentligi» (Risk Management Agency) tashkil etilgan. Agentlik Federal Korporatsiya faoliyatini nazorat qiladi. Uning hududiy vakolatxonalari va xodimlari sug'urta sohasidagi amaldagi dasturlarni keng joriy etishda va yangi sug'urta mahsulotlarini amalga oshirishda qatnashadilar. Bundan tashqari, agentlik tomonidan xatarlarni boshqarish va klassifikatsiyasini baholashda yordam ko'rsatish bo'yicha o'quv dasturlari amalga oshiriladi. Fermerlarga qishloq xo'jaligini sug'urtalash, xatarlarni boshqarishning boshqa usullari, jamg'arma hisob raqamlarni boshqarish, shartnomalar tuzish haqida axborot va ma'lumotlarni taqdim etadi. Ya'ni, ular faqatgina sug'urtalash bilan cheklanib qolmasdan qishloq xo'jaligida xatarlarni boshqarishning samarali mexanizmlarini taklif etadi.

Umuman, sug'urta himoyasi 85 turdagi qishloq xo'jaligi ekinlarini qamrab olgan. Ekinlarni va daromadni sug'urtalash bo'yicha asosiy davlat dasturlari sifatida «Tabiiy ofatlardan himoya qilish dasturi» (Catastrophic Risk Protection, CRP), «Hosilni sug'urtalashning multirisk dasturi» (Multiple Peril Crop Insurance, MPCl), «Guruh reja Dasturi» (Group Risk Plan, GRP), «Daromadni himoyalash Dasturi»ni qayd etish lozim.

AQSh hukumati tomonidan 1994 yilda qabul qilingan Federal sug'urta tizimini isloh qilish to'g'risidagi qonun agar fermer xavf-xatarni sug'urtalash Dasturida (CAT) qatnashayotgan bo'lsa, bunday xavf-xatardan kelgan zararni qoplashni nazarda tutadi.

Ushbu dastur bo'yicha fermerlar ma'muriy xarajatlar uchun to'lovlarni amalga oshirishga majbur hisoblanadilar (bitta ekinni sug'urta qilish o'rtacha 100 dollar hisobida).

Tabiiy ofatlar va xavf-xatarlar yuz bergan holatda Dastur bo'yicha yo'qotilgan hosilning (10 yil oldingi ekin hosildorligini hisoblash asosida) 50%i va narxlar o'zgarishi hisobiga ko'rilgan zararining 55%i qoplanadi. Ushbu dasturni amalga oshirishda fermerlarning ixtiyoriy ravishda ishtirok etishi mumkinligi belgilangan.

Bundan tashqari, fermerlar ko'p turdagi sug'urta xatarlari bo'yicha qo'shimcha sug'urta polisini olishlari mumkin. Bugungi kunda ekinlar sug'urta bozorida ko'p sonli sug'urta turlari va tizimlari mavjud. Amalda ularning barchasi turli shaklda subsidiyalanadi.

AQSh hukumati tomonidan ekinlarni sug'urtalashga ajratilgan subsidiyalar hajmi 8 million dollardan ortiqni tashkil etadi.

Shunday qilib, AQSh qishloq xo'jaligi sug'urta tizimidagi samarali qonunchilik va axborot ta'minoti, ko'p variantli yondashuv, qat'iy nazorat va davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash uning rivojlanishini ta'minlamoqda.

Kanadada 1939 yilda qabul qilingan «Fermerlarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi (Prairie Farm Assistance Act) Qonun sug'urta tizimini tartibga solishning asosiy huquqiy asosi hisoblanadi. Kanada qishloq xo'jaligida sug'urta bozorining shakllanishida AQSh sug'urta tizimining rivojlanishiga o'xshash jihatlari mavjud. Lekin bu yerda barcha turdagi tavakkalchiliklardan sug'urtalash biroz kechroq, ya'ni 1960 yilda joriy etilgan. Sug'urta kompaniyalari faoliyatini nazorat qilish provinsiyalar darajasida amalga oshiriladi. Kanadada 1991 yilda Yalpi daromadni sug'urtalash Dasturi (GRIP) joriy etilgan. Ushbu dasturni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni federal hukumat, provinsiyalar hukumati va fermerlar o'z zimmasiga olgan. Ushbu sxema bo'yicha yalpi daromadni hisobga olish uchun mahsulotning 15 yillik o'rtacha o'zgaruvchan bahosidan foydalaniladi.

Bugungi kunda Kanadada barqaror depozit hisob-raqamlari subsidiyalash das-turi amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturning mohiyati shundaki, fermerlar o'zlarining daromadlariga (tushumiga) nisbatan 3% miqdorida pul o'tkazib borish uchun zaxira hisobraqami ochish huquqiga egalar. Hukumat o'z navbatida fermerning qo'yilmasiga teng bo'lgan miqdorda subsidiya ajratadi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari noqulay iqlim sharoiti bo'lgan davrda zaxira hisobraqamlariga hukumat tomonidan mablag'-larni o'tkazib berishini talab etish huquqiga ega. Buning mezonini sifatida fermerning yalpi daromadi miqdori hisobga olinadi. Fermerning yalpi daromadi so'nggi 5 yildagi yoki eng kam daromad miqdoridan kam bo'lmasligi lozim.

Xitoyda davlat Kengashi tomonidan 2012 yil 12 noyabrda «Qishloq xo'jaligi sug'urtasi to'g'risida»gi Nizom qabul qilingan. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi o'simlikchilik, chorvachilik, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari faoliyatida sug'urta shartnomasida aks ettirilgan hodisalar, ya'ni tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar, epidemiya va epizotiyalar yuz berganda mulkiy yo'qotishlarni qoplash bo'yicha sug'urta kompaniyalari va qishloq xo'jaligi korxonalarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi sug'urtasi to'g'risidagi Nizom qishloq joylari va qishloq aholisiga nisbatan sug'urtaning boshqa turlariga, xususan, yashash joylari va binolarni, qishloq xo'jaligi jihozlarini, baliq tutish anjomlari va boshqa mulklar, qishloq aholisini baxtsiz hodisalardan sug'urtalash bo'yicha ham qo'llanilishi lozim. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Sug'urtalash bo'yicha shartnomalar tuzishga alohida dehqonlarga, dehqonlar guruhi nomidan qishloq aholisi komitetlariga va qishloq xo'jaligi korxonlariga ruxsat beriladi.

Nizom sug'urta mukofotlarini to'lashni mahalliy budjetdan subsidiyalashni, qishloq xo'jaligini sug'ur-talovchi sug'urta tashkilotlarini kreditlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va soliq imtiyozlarini berishni ko'zda tutadi. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari stavkasi sug'urtalovchi tashkilotlar tomonidan adolatli va asoslangan holda belgilanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat tomonidan subsidiyalanadigan alohida sug'urta turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari stavkalari XXR Moliya vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining hududiy organlari va Xitoy xalq hukumati qoshidagi provinsiya darajasidagi o'rmon xo'jaligi bo'yicha davlat boshqaruvi bilan kelishilgan, shuningdek, qishloq aholisi vakillari fikrlarini hisobga olgan holda belgilanadi. Qishloq xo'jaligi sug'urtasi bo'yicha sug'urta mukofotlari stavkasi sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha Komissiya tomonidan ro'yxatdan o'tkazilishi yoki tasdiqlanishi lozim. Sug'urta mukofotlari stavkasini ro'yxatdan o'tkazish (tasdiqlash) tartibi buzilgan holatlarda sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha Komissiya belgilangan muddatda xatolikni to'g'rilashga majbur va 50 ming yuandan 300 ming yuangacha (8 ming AQSh dollaridan 55 ming dollargacha) jarimaga tortiladi.

Sug'urta mukofotlari stavkasini og'irlashtiradigan holatlar bo'lganda sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha Komissiya sug'urtalovchi tashkilot faoliyatini cheklash yoki qishloq xo'jaligi sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish bo'yicha litsenziyasini bekor qilish huquqiga ega.

Albatta, har bir davlatda sug'urta tizimi o'ziga xos bo'lib, ko'p omillar ta'sirida va uzoq muddatlarda shakllanadi. Lekin ularni umumlashtirgan holda aytish lozimki, qishloq xo'jaligi rivojlangan davlatlarning agrar sug'urta tizimini amalga oshirish bo'yicha tajribalarini respublikamiz sharoitlariga mos holda qo'llash maqsadida qishloq xo'jaligida xatarlarni sug'urtalash sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi, sug'urta maqsadlari, turlari, ob'ektlari, tarifi, sug'urta mukofotlari, qoplamalarni to'lash tartib-lari, sug'urtalashda ishtirok etuvchilarning huquq va majburiyatlari, sug'urta bozori ishchirokchilari, davlatning qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini belgilab beruvchi maxsus qonun qabul qilish bugungi kunning talabi hisoblanadi. Shuningdek, xorijiy tajribalardan quyidagi jihatlarni qo'llash maqsadga muvofiq:

>qishloq xo'jaligida sug'urta tizimida raqobat muhitini rivojlantirish va turli mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalarini agrar sug'urta bozoriga jalb qilish;

>qishloq xo'jaligida sug'ur-ta tizimini modernizatsiyalash bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan dastur (Konsepsiya) ishlab chiqish;

>qishloq xo'jaligi ekinlarini konturlar bo'yicha sug'urtalash mexanizmini joriy etish;

>qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini tabiiy ofatlardan ko'radigan zararlarini qoplash maqsadida maxsus «Sug'urta fondini» tashkil etish va uning mablag'larini soliqlardan ozod etish hamda tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan sug'urta mukofotlari to'lovining bir qismini davlat tomonidan kompensatsiya qilish;

>agrar sug'urta bozori ishtirokchilari, ya'ni mahsulot yetishtiruvchilar va sug'urta kompaniyalari xodimlarining agrosug'urta borasidagi malakalarini oshirish;

>qishloq xo'jaligi sug'urta bozoriga davlat investitsiyalarini jalb etish va buni yangi, noan'anaviy sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlashga, ishlab chiqaruvchilarni va sug'urta xodimlari malakasini oshirishga, ekinlar holati monitoringini olib borishga va zararlarini baholashning standart qoidalarini ishlab chiqishga yo'naltirish.

Institutsional rivojlanish xususiyatlari qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash tizimlarining shakllanishi va rivojlanish darajasiga ta'sir qiladi. Biroq, mavjud muammolar va ularning sabablari juda o'xshashligicha qolmoqda. Bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarkibida boshqaruvning kichik shakllarining ustunligi kam ta'minlanishga, sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta badallarining kamligiga va katta ma'muriy xarajatlarga olib keladi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan sug'urta dasturlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. sug'urta mukofotlari yoki sug'urta to'lovlarini byudjetdan subsidiyalash;

2. davlatning qishloq xo'jaligi risklarini qayta sug'urtalashda yoki halokatli hodisalar natijasida etkazilgan zararlarni bartaraf etish uchun mablag'larni shakllantirishda ishtirok etishi;

3. sug'urta faoliyati infratuzilmasini shakllantirishga ko'maklashish (uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish, statistik ma'lumotlar, aktuar hisob-kitoblarni taqdim etish, anderrayting va sug'urta arbitraj xizmatlarini yaratish, meteorologik uskunalarni o'rnatish, ta'lim dasturlarini amalga oshirish, axborot tadbirlarini o'tkazish);

4. qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozori faoliyatining samarali tamoyillarini yaratish (shartnomalar tuzish, sug'urta to'lovlarini amalga oshirish va nizolarni hal qilish, raqobatni rivojlantirish shartlari va sug'urta ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish).

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan qishloq xo'jaligi sug'urtasining me'yoriy-uslubiy bazasini yaratish ushbu sohadagi asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda, bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi sug'urtasiga yo'naltirilgan davlat subsidiyalarini ishlab chiqish va taqsimlash tizimiga yaratishni talab etadi, Buni biz qishloq xo'jaligida sug'urta xizmatlariga talab dinamikasida yaqqol ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston uchun ham, integratsion hamkorlikning boshqa mamlakatlari uchun ham rivojlangan qishloq xo'jaligi sug'urtasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan samarali risklarni boshqarish mexanizmiga aylanishi mumkin. Bunga qishloq xo'jaligi sug'urtasining milliy tizimlarini integratsiyalashuvi orqali erishish mumkin, bu esa har bir davlatda tegishli institutsional sharoitlarni yaratish orqali amalga oshiriladi. Umuman olganda, sug'urta faoliyatini tartibga solishga yondashuvlarni takomillashtirish va unifikatsiyalash, qishloq xo'jaligi sug'urtasining normativ-huquqiy sohasiga tuzatishlar kiritish zarur. Bu yerda sug'urta tashkilotlari bozoriga kirish va ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishni tartibga soluvchi normalar muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi rivojlangan davlatlarda sohada moliya-kredit va sug'urta tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha uzoq muddat davomida sinovdan o'tgan muayyan tajriba to'plangan, ularning ijobiy jihatlari respublikamiz sharoitlariga mos holda joriy etish qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari hisoblangan fermer va dehqon xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Nosurullaev K. (2022). *Risks of agricultural products and the need for insurance in developing countries, Sustainable agriculture* 4(16)-2022, 50-54.

Nosurullaev K. (2023). *Organizational-economic bases of the impact of climate change on agriculture and directions of insurance. EPRA International Journal of Climate and Resource Economic Review - Peer Reviewed Journal, Volume: 11 | Issue: 4 | July 2023 || SJIF Impact Factor (2023): 8.076 || Journal DOI: 10.36713/epra1213.*

Nosurullaev Q.A. (2022) *Foreign experiences on organization of agricultural insurance system, Sustainable agriculture* 1(13) 28-30.

Nosurullaev Q.A., I.O.Yunusov (2022). *Demand for high-quality agro-insurance services in agriculture and the main indicators of its determination, Sustainable agriculture* 3(15) 28-30.

Sobirov H.R(1998). *Sug'urta: 100 savol va javob.* – T.: «Mehnat», – 160 b.;

Yuldashev M., Tursunov Y. (2012) *O'zbekiston Respublikasi sug'urta huquqi. Darslik.* – T.: Moliya, nashriyoti, 264-b.